

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi

Shodiya QURBONOVA¹

Annotatsiya

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yoʻnalishi sifatida oʻtgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” (Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi. Ushbu anjumanda oʻqilgan maʼruzalar toʻplamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori M.Bar-Hillelning “Soʻz boshi” da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariya doirasida oʻrganilishi lozim”, degan xulosaga kelishdi.

Kalit soʻzlar: *Pragmalingvistika, nutqiy akt nazariyasi, kommunikativ maqsad, lingvistik nazariya, muloqot, tabiiy til, sintaktik xususiyatlar, semantik xususiyatlar, pragmatik xususiyatlar.*

Pragmatikaning “qayta tugʻilish davri” deb eʼtirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik koʻtarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yigʻinlar oʻtkazildi, chop qilinayotgan toʻplamlar, ilmiy tadqiqotlarning chegarasi yoʻq, “Journal of Pragmatics” tom maʼnoda xalqaro nashrga aylandi.

Bu darajada jadal taraqqiy etayotgan fan sohasining toʻligʻicha shakllanishi, oʻzligini ajratib olishi uchun uning predmetini, asosiy tushunchalari, tamoyillarini belgilab olish zarurati tugʻilishi muqarrar. Afsuski, qator tadqiqotchilarning urinishlariga qaramasdan, bu muammo oʻz yechimini topganicha yoʻq, hanuz pragmatikaning boshqa tilshunoslik sohalari qatorida tutgan oʻrni, uning sohalararo munosabati haqida aytilayotgan fikrlarning oxiri koʻrinmayapti. Bu bir tomondan, yaxshi, sohaning muhimligi, koʻtarilayotgan masalalarinng koʻpligi, tanlangan yoʻnalishning dolzarbligini barchaning eʼtiborini tortayotganligi isbotidir. Ikkinchidan esa, soha predmetining ravshan boʻlmasligi, tamoyillar

¹ Qurbonova Shodiya – OʻzMU magistranti.

E-pochta: shodi2026@gmail.com

Iqtibos uchun: Qurbonova Sh.. Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 116-124.

chalkashligi, murojaat qilinayotgan tamoyil, tushunchalarning betartib qo'llanishiga, xulosalarning noaniqligiga sabab bo'lishini ham unutmazlik kerak.

Keyingi yillarda "pragmatika" atamasini qo'llamaydigan tilshunos qariyb qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Natijada, o'ziga xos pragmatik "fetishizm" holati paydo bo'lib, bajarilgan tadqiqotlarda atamaning qo'llanishidan tashqari, uning mazmuniga oid biror bir ma'lumotni topish qiyinlashib bormoqda. Lozim bo'lsa, bo'lmasa atama qo'llanaversa, uning negizida turgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelinishi turgan gap. Inchinun, lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning pragmalingsvistik tahlili haqida gapirishdan oldin "Pragmalingsvistika nima bilan shug'ullanadi?", "Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?", "Pragmatikaning asosiy tushunchalari, tamoyillari qaysilar?" kabi savollarga javob izlashga majburmiz.

Pragmalingsvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri Г.Клаус edi. U yuqorida eslatilgan asarida pragmatikani "belgilar (Z) va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar (M) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklarkabi belgi va uni idrok etuvchi – interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning "pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir" degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflashdan boshqa narsa emas. To'g'ri, belgining munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini inobatga olish semiotik tizim qismlarini ajratish va ularning o'zaro aloqalarini aniqlash uchun muhim. Busiz pragmatikaning semiotik jarayondagi o'rnini bilib bo'lmaydi. Lekin ushbu jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama munosabat (belgi - interpretator) sifatida qaralganda, pragmatikaning ta'rifi faqat formal ko'rinish oladi. Unda beixtiyor lisoniy belgining vazifasini faqatgina ma'lumot yetkazish vositasidan iborat, degan fikr ustuvor bo'lib qoladi.

Ingliz tilshunosi М.Холлидей Byuller tasnifini birtomonlamalikda ayblaydi, uning fikricha, bunday tasnifda ijtimoiy va ruhiy omillar yetakchi o'ringa chiqib, lisoniy qurilish xususiyatlarini inobatga olish va yoritish unutiladi. Olim К.Бюллер ajratgan Ausdruck (ekspressivlikni ifodalash) va Appell (appelyativ yoki konativ, ya'ni suhbatdoshni harakatga majbur qilish) vazifalarini yagona bir «interpersonal», shaxslararo munosabat doirasida

yuzaga keluvchi vazifaga biriktiradi. Uning yozishicha: «bu ikkalasi (ekspressivlik, konativlik) o'rtasidagi farq psixologik tahlil nuqtayi nazaridan muhimdir, ammo lingvistika uchun ahamiyatsiz. Masalan, savol biror hodisa haqida ma'lumot berish talabimi (konativ) yoki biror narsani bilish istagining ifodasimi (ekspressiv)? Ekspressiv va konativning til tizimida bir-biridan ajratib bo'lmashligidan hayratlanmaslik kerak. Ularning ikkalasi yagona bir "shaxslararo" vazifaga birikadilar.

Yuqorida keltirilgan tasnif boshqalari bilan qiyoslanganda, Byullerning inson faktorini inobatga olmayotganligi ma'lum bo'ladi. Byuller muloqot jarayoni tahliliga qandaydir «betaraf kuzatuvchi» nuqtayi nazaridan yondashadi, bu «kuzatuvchi» haqiqiy lisoniy faoliyat jarayonidan ajralib qolgan. Muallif kommunikativ vaziyatning ayrim jihatlarinigina qayd qilishdan nariga o'tmasdan, muloqat ishtirokchilari lisonidan foydalanishida hosil bo'ladigan holatlar masalasini ochiq qoldiradi. Uning diqqat markazida faqatgina lisoniy belgining voqelikdagi biror predmet yoki hodisa bilan bog'liqligi masalasi turadi. Ammo referensiya ham Byuller talqinida ekstrasub'yektiv hodisadir, ya'ni u lisoniy belgidan foydalanuvchi shaxsga aloqador emas.

M. Halliday tasnifida ham lisonning uch vazifasi eslatiladi: 1) idrok, tasavvur vazifasi (the ideational function), ya'ni lison so'zlovchilarning voqelik, o'z ichki kechinmalari haqidagi fikr, g'oyalarini ifodalash uchun xizmat qiladi; 2) shaxslararo vazifa (the interpersonal function): til muloqatga kirishish va shaxslararo munosabat o'rnatish vazifasini o'taydi; 3) kontekst yoki matn vazifasi (the textual function): til o'zi va qo'llanilayotgan vaziyat elementlari o'rtasidagi aloqani shakllantirish vazifasini bajaradi. Oxirgisi til tizimining ichki vazifasi bo'lib, u oldingi ikki vazifa amalga oshishida vosita xizmatini o'taydi. [Halliday M.A.K 1.1976]

Ushbu tasnifiy qatordan faqatgina birinchisi, ya'ni idrok etish, tasavvur qilish vazifasi (the ideational function) Byuller tasnifidagi Darstellung "bayon etish, tasvirlash" ga mos kelishi ko'rinib turibdi. Zero, ikkala muallif ham voqelikning kognitiv-lisoniy aks topishini (referentlikni) nazarda tutmoqda. Hollideyning muloqotning ishtirokchilari so'zlovchi va tinglovchiga oid lisoniy faoliyat ko'rinishlarini yagona bir doirada, ya'ni shaxslararo munosabat doirasida talqin va tavsif qilishi bir oz e'tirozlidir. Ma'lumki, kommunikativ jarayonda so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsadi va roli turlicha. So'zlovchi tinglovchining kechayotgan muloqot tarzi, mazmuniga bo'lgan munosabatini hisobga olishga

majbur, aks holda muloqot soxtalashadi, kommunikativ befarqlik yuzaga keladi. Shunga nisbatan, Byuller tasnifidagi kommunikativ jarayonda lison bajaradigan vazifani bir paytning o'zida so'zlovchi va tinglovchi nuqtayi nazaridan talqin qilib, ikki alohida vazifa ijrosi sifatida ajratishni ma'qulroq, deb tavsiya qilmoqchiman.

Ma'lumki, muloqot jarayonida lison matn shaklida namoyon bo'ladi, zero, lisoniy harakatlar alohida-alohida tarzda bajarilmaydi, ular guruhlar davrasida paydo bo'ladi, ularning har birining lisoniy matnda o'z o'rnini bor. Har bir lisoniy tuzilma (gap) ning matnda joylashuvi ("joylashtirilishi" desak, ma'qul bo'ladi) ushbu tuzilmaning o'zi uchun ham, butun muloqot matnining shaklan hamda mazmunan tarkib topishi uchun ham muhimdir. Shu sababli lisoniy belgining matniy vazifalarini ajratish lozim bo'ladi.

J. Layonz tilshunoslarning 12-xalqaro kongressida (Vena,1977) pragmalingsvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi, deyish demakdir". Ushbu ta'rifning asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o'rtasidagi munosabat turibdi.

"Sabab-motiv-maqsad" zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta'minlaydi. Xuddi shu narsa A.Кашерни pragmalingsvistik tahlilning asosiy maqsadini «qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarini» yoritish va tushuntirish deb tavsiflashga undaydi.

Pragmalingsvistikaga berilayotgan ta'riflarni qiyoslaganimizda, ularning barchasida ushbu soha predmetini yoritishda yetishmayotgan to'laqonlilikni, ayrim holda bir ta'rif ikkinchisida ifodalanayotgan mazmunga qandaydir bir "soya" tushirayotganligini sezamiz. Balki ushbu masalaga turli tomonlama yondashuv orqali "barcha sarhadlar bo'ylab hujum qilish" yo'li bilan umumiy holatni, o'rganilayotgan hodisaning to'liq suratini tasvirlash mumkindir. Buning isbotini izlash maqsadida pragmalingsvistik adabiyotlarda berilib kelinayotgan ayrim ta'riflarni eslatishga va qisman izohlashga harakat qilmoqchiman.

Amerika tilshunoslarining ko'p hollarda lisoniy faoliyatga oid har bir hodisa tahlilida Chomskiy ta'limotiga tayanishga harakat

qilishlari sezilib turadi. Pragmalingvistik tadqiqotlar ham bundan mustasno emas. Nutqiy harakatlar ijrosi negizidagi propozitsiya mazmuni va kommunikativ maqsadni namoyon qilish (illokutsiya) munosabatini o'rgangan J.Kats pragmatika predmetini Chomskiy ta'limotidagi lisoniy qobiliyat (competence) va nutqiy ijro, faollik (performance) qarama-qarshiligida ko'radi. Uningcha, pragmatik nazariya gaplarning ma'nosini ma'lum muhitda (kontekstda) talaffuziga binoan chegaralash imkonini yaratadi. "Grammatika gap turlari strukturasi haqidagi ta'limotdir, pragmatika esa aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatik xususiyat va munosabatlarini yoritish bilan shug'ullanmaydi. Pragmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqqligini so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta'minlanishini o'rganadilar. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya nutqiy faollik (performatsiya) nazariyasining ma'lum bir qismidir".

Pragmalingvistik tadqiq doirasini bu darajada toraytirish uni faqatgina nutqiy ijro faoliyati bilan chegaralab qo'yish nazariyani tor ko'chaga yetaklashdan boshqa narsa bo'lmasa kerak. Bunday holatda lisoniy tahlil o'z poydevori - lisonidan ajralib qoladi. Shubhasiz, lisoniy faoliyatning yuzaga kelishida sotsial muhit, muloqot vaziyati muhim rol o'ynaydi va shakllanayotgan birlikning mazmuni matn yoki kontekstda namoyon bo'ladi, aniqlanadi. J. Kats keltirgan misollar rabbit "quyon" va bunny "quyoncha" hamda dog "it" va dogge "kuchukcha" juftliklarining ikkinchi so'zlarini ("quyoncha", "kuchukcha") bolalarga nisbatan yoki ularning o'zlari tomonidan ishlatilishi to'g'ri. Ammo ular mazmunidagi erkalash, kichraytirish ma'nolari matnga ham ma'lum. Bu ma'nolar lisoniy xarakterga ega va leksik yoki morfologik ifoda vositasiga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

Lisoniy faoliyat birliklarining mazmunan matn, qo'llanilayotgan kontekst bilan bog'liqligi muammosi shu darajaga borib yetdiki, Bar-Hillel, J. Layonz kabilar bir tomondan matn – gap va tizim – gap, gap – til va gap - belgi hamda, ikkinchi tomondan, nutqiy birliklar bo'lgan nutqiy akt va nutqiy hosila, nutqiy belgi va til hodisalarini farqlashni taklif qilishadi. Bu esa, o'z navbatida, gap ma'nosini semantikaning obyekt va nutqiy birlik ma'nosini pragmatika obyekt sifatida qarashga sabab bo'ladi. Semantika va pragmatika munosabati masalasi muhokamasini hozircha keyingi sahifalarga qoldirib, aytmoqchimanki, bu turdagi talqin pragmalingvistikaning doirasini yanada chegaralab qo'yib, uni gap yoki nutqiy birlikning u yoki bu matnda (vaziyatda) o'rinli - o'rinsiz qo'llanishini aniqlovchi sohaga yaqinlashtirib qo'yishi hech gap

emas. U holda S.Levinson taklif qilgan ta'rif o'rinlidaydek tuyuladi: «Pragmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining kontekstda o'rinli (appropriate) qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir». Menimcha, bu ta'rif ham pragmalingsvistika predmetini tor doirada tasavvur qilinishi namunasidir.

Olmon olimlari pragmatika sohasini keng ma'noda talqin qilish, uni tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida e'tirof etishni ma'qul ko'rishadi. Masalan, "Olmon lingvistik qomusi»ning mualliflaridan biri, matn tilshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis Z.Shmidt [1,89] "pragmalingsvistika" va "matn lingvistikasi" tushunchalari yagona bir mazmun anglatishini va ular birgalikda lisoniy muloqot umumiy nazariyasini shakllantirishini hamda ushbu nazariya, kommunikativ tilshunoslik sohasi sifatida, matn grammatikasi va an'anaviy grammatikani ham qamrab olishini isbotlash niyatida ekanligini bildiradi [].

Mualliflar soni ko'paygani sari berilayotgan ta'riflardagi turli xillik, fikrlar zidligi ham o'sib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Oxirgi 60-70 yil davomida pragmatikaning doirasi, qamrovishunchalikkengaydiki, yagona bir nazariya va uning chegarasi haqida biror bir to'xtamga kelishning o'zi qiyinlashib bormoqda. Buning ustiga, pragmalingsvistikaning taraqqiyotiga kognitologiya, madaniy antropologiya, falsafa, mantiq, sotsiologiya, faoliyat nazariyasi kabi tilshunoslikning sarhaddoshlari va sotsiolingsvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingsvistika, matn nazariyasi kabi sohalari ham hissa qo'shib kelmoqda. Pragmalingsvistik tadqiqotlarning predmetini nimalar tashkil qilmog'i darkorligi masalasi ham o'z dolzarbligini hanuz saqlab kelyapti.

Yuqorida pragmatikani tor ma'noda talqin qiluvchi ayrim ta'riflar keltirildi. Xuddi shu yo'sindagi pragmatik tadqiqot doirasining toraytirilishini ayrim faylasuflarning fikrlarida ham sezish mumkin.

Pragmatikaning keng miqyosdagi talqini uning tadqiq doirasiga insonning maqsadli harakat turlarining kiritilishida namoyon bo'ladi.

Pragmatikaning bu ikki qutbli talqini doimo bir-biriga qarab intiladi va turli tadqiqotlarda pragmatika tushunchasiga berilayotgan tavsiflar bir-birini to'ldirib, ravshanlashtirib borayotgandek tuyuladi. Turli ishlarda qayd etilishicha, pragmalingsvistika lisoning qo'llanishi bilan shug'ullanuvchi, nutqiy vaziyatda (kontekstda) faollashgan til tizimi haqidagi fan, tilni rejalashtirilayotgan maqsad nuqtayi nazaridan tadqiq qiluvchi fan, nutq aktlarini tavsiflovchi

nazariya, konversatsion (og'zaki nutq) tahlil nazariyasi, shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi lisoniy vositalarni o'rganuvchi soha va hokazo (bu qatorni yana davom ettirish mumkin). Rus tilshunoslari N.D.Artyunova, Y.S.Stepanov pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining "men"ini ifodalanishi uslublarini o'rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi. Pragmatikani so'zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta'sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar ham yo'q emas.

Niderland olimi T.A. van Deyk [3, 239] va uning izdoshlari lisoniy nutqiy qurilmalarining muloqot vaziyati uchun «yaroqliligi» masalasini nazariy jihatdan yoritish pragmatikaning maqsadi, deb hisoblaydi. Ushbu nazariyaning asosiy vazifasi nutqiy aktlarning kognitiv mazmunini yaratish, ularni esda saqlab qolish hamda ma'lum ijtimoy-madaniy muhitda til tizimidan foydalanish va shu asnoda kommunikatsiya modelini shakllantirish muammolarini o'rganishdir. Xullas, pragmalingvistikaning predmetini aniqlash borasidagi urinishlar davom etmoqda, ushbu sohaga berilgan ta'riflar ham bisyor, ammo yuqorida eslatilgan ta'riflardan hech biri tilshunoslikning ushbu sohasiga oid asosiy tushunchalarning mazmunini aks ettira oladigan darajadagi umumiylikka da'vogarlik qila olmaydi.

Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o'rganish obyekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklarning turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, «bahosi», mundarijasining namoyon bo'lishini ta'minlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklarning har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik va vazifaviy (funktional) xususiyatlari namunasidir. Pragmalingvistik tadqiq metodologiyasi, birinchidan, o'z falsafiy asosiga ega bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan, xuddi shu xususiyatlarni (ontologik va vazifaviy) aniqlash imkoniyatini yaratmog'i lozim. Bunday metodologiyaning tayanch nuqtasi xizmatini, so'zsiz, faoliyat tamoyili yoki umuman faoliyat falsafasi o'tashi mumkin. Faoliyat kategoriyasining lingvistik tadqiqotlarda asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilinishi kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari, ularning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy mohiyati haqida batafsilroq bilimga ega bo'lish imkonini yaratadi [5, 39]. Muloqot jarayonining faoliyat tamoyili nuqtayi nazaridan yoritilishi pragmalingvistikaga nazariy libos

kiydirish bilan bir qatorda, olamni bilish va lisoniy faoliyatning tutashganligini isbotlovchi dalillar topishga zamin hozirlaydi. Axborot almashinuvini taqozo etuvchi nutqiy muloqot hissiy va ratsional (oqilona) bilish harakatlarining o'zaro aloqasi natijasidir. Lisoniy muloqot qobiliyatining o'zi kognitiv va kommunikativ vazifalar umumlashmasi bo'lgan maqsadga erishishda lisonan foydalana olish qobiliyatidir.

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z "ichki" sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

- Halliday M.A.K. System and function in language. London: Oxford Univ. Press, 1976.
- Proceedings of the 12th International Congress of Linguists. Vienna, 1977 (ed. By Dressler W.) Meid W. -Innsbruck: Inst. Fьr Sparchwissenschaft, 1978.
- Kasher A. What is a Theory of Use. In: Meaning and Use. -Dordrecht, 1979.
- Дейк Т.А. ван Язык. Познание. Коммуникация. - М.: Прогресс, 1989.
- Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. - Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. - 39 б.
- Green G. How to get people to do things with words: the whimperative question. In: Syntax and Semantics. Speech Acts. New York: Academic Press, 1975.
